

RAQAMLI BANK TIZIMI VA UNING RIVOJLANISHI

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Bank ishi yoʻnalishi 1-kurs talabasi
Shamsiddinova Nilufar Fazliddin qizi
shamsiddin18103@gmail.com

Ilmiy rahbar: Alibekova Saodat Lapasovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada banlarning paydo boʻlishi va ularning rivojlanish tarixi yoritilgan. Shuningdek hozirgi kunda online bank va anʼanaviy banklarning oʻzaro farqlari taqqolangan. Bank kartalari soni, terminallar soni, bankomat va infokiosklar soni, toʻlov terminallari orqali tushgan tushumlar (oy davomida) yillar kesimida tadqiq etilgan.

Kalit soʻz: Bank, Raqamli banking, Online bank, anʼanaviy bank, bank kartalari, terminallar, infokiosklar, tushumlar.

Kirish

Butun dunyoda bank biznesi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bank biznesi yuqori texnologiyali boʻlganligi sababli, u doimo makro va mikro darajadagi oʻzgarishlarga moyildir. Bunday oʻzgarishlar kredit tashkilotlari va bozorlarining baynalmilallashuvining kuchayishi, bank qonunchiligi va zamonaviy kompyuter texnologiyalarining takomillashtirilishi, bank xizmatlari bozorlarida raqobat darajasining oshishi, moliya bozorlarida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Banklar iqtisodiyotning oʻziga xos “qon aylanish tizimi” vazifasini bajaradi, shuning uchun har bir davlatning bank tizimi bir tekis, barqaror va samarali faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi:

Bugungi kunda bu iqtisodiyotning qon tomiri ekanligi sir emas. Ushbu bank faoliyati boʻyicha koʻplab olimlar oʻz tadqiqot ishlarida turlicha mualliflik taʼriflarini

berib o'tishgan. Ularning ayrimlari bilan tanishib o'tishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste'molchilar va tijorat mijozlari uchun moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar [1].

Bank innovatsiyalarini moliyaviy xizmatlar sohasidagi raqamli transformatsiyaga o'tkazish raqamli texnologiyalar an'anaviy bank biznesini tubdan o'zgartirishga turtki bo'ladi va yangi innovatsion yechimlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda [2].

Bank mijozlari banklarning mobil ilovalari (mobile banking) yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtda bank operatsiyalarini darhol amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, mobil banking ilovasi qo'shimcha filiallarni ko'paytirish xarajatlarini kamaytiradi. Bank, shuningdek, ilovadan mijozlar ma'lumotlarini olishdan foyda oladi [3].

Bank xizmatlarini mijoz va bank xodimi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan bank ofisida emas, balki uyda, mijozning ofisida, ya'ni ikkinchisi uchun qulay bo'lgan joyda ko'rsatish kerak va raqamli bankning asosiy jihatlaridan biri bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va tez fursatlarda xizmat ko'rsatish hisoblanadi [4].

Bank, bu moliya muassasi shunchalar rivojlandiki hozirda bu so'zni bilmaydigan, tushunmaydigan shaxsning o'zi yo'q. Jamiyat hayotida bu iqtisodiy termin, o'z obro' e'tiboriga ega. Kundalik turmush hayotimizda bajaradigan ishlarimizda ham bu moliya muassasiga yuzlanamiz. Plastik kartada bajariladigan kichik savdodan to valyuta ayri boshlash kabi ishlarda bu moliya muassasi bizga ko'maklashadi [5].

Bizning fikrimizcha raqamli texnologiyalarni banklar faoliyatiga joriy etish bu – jismoniy ko'rinishda mavjud bo'lgan bank xizmatlarini texnologiyalardan

foydalangan xolda masofaviy shaklga o'tkizish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan bank xizmatlari turini o'z ichiga oluvchi tijoriy faoliyat hisoblanadi.

Tahlil va muhokamalar:

Online banking tarixi aslida 1980-yillarga borib taqaladi. Ya'ni shu davr mobaynida, hali internet ommalashmagan vaqtda online banking SMS banking sifatida nomlanardi. Chunki bu bank tizimi sms yoki matn xabarlarini orqali o'z operatsiyalarini amalga oshirardi. Dastlabki internet banking xizmatlarini mijozlarga taklif etgan bank The Bank of Scotlanddir. Bu bank to'lov operatsiyalari yoki pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun asosan, televizor tarmoqlaridan va telefon aloqalaridan foydalanardi. O'sha davrlarda bu tizimni "Homelink" deb atalgan bo'lsa, hozirgi kunda online banking yoki internet banking deb atalishiga poydevor bo'lgan desak ham bo'ladi. 1994-yilda AQSHda Stanford Federal Credit Ittifoqi barcha mijozlar uchun internet banking xizmatini joriy etgan dastlabki moliyaviy instituti bo'lib tarixga kirdi. 1996-yilda esa birinchi internet bankka asos solindi. Uning nomi esa bankning o'ziga xos jihatidan kelib chiqib NetBank deb nomlangan. O'z faoliyatining dastlabki yillarida bank mijozlarga yaxshi xizmat qilgan bo'lsada, 2007-yilda bank ishlashdan to'xtagan. 1999-yilda bank tarraqiyotida the Bank of Internet USA asosiy ro'l o'ynagan. Ular mijozlarga ananaviy banklardan farqli o'laroq barcha foydali bank takliflarini berib kelganlar. Masalan, yuqori foiz stavkalari, zamonaviy bank hisoblar boshqaruvi va online bank pul o'tkazmalari asosiy ajralib turadigan jihatlar sirasiga kiradi. Odamlar orasida online bank xizmatlariga qiziqish ortgan bo'lsada, afsuski, hammada ham o'sha davrda internetga kirishda imkoniyat bo'lmagan. Lekin keyingi davrlarga kelib bazi bir yangi innavatsion lohiyalar tufayli online bankingning ommalashishiga sabab bo'ldi:

- 2000-yillar atrofida bo'lsa Android va iOS operatsion tizimlarida ishlaydigan smartfonlar ommabopligi oshib ketdi;
- 2008-yilda Bitcoin yaratildi;
- 2004-yilda esa Apple Pay, uning ortidan Samsung Pay tizimlari ishlab chiqildi.

- 2011-yilda Google Hamyon ishga tushirildi;

Yuqorida aytib o‘tilgan o‘zgarishlar aynan internet banking rivoji uchun katta hissa qo‘shdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, Smartfonlarning amaliyotga kirib kelishi mobil banking ilovalarining ishlab chiqilishiga, bu esa bank operatsiyalarini har bir inson individual holatda amalga oshirishiga imkoniyat yaratdi.

Raqamli banklarning dunyo miqyosida soni jadal o‘smoqda 2023-yilda litsensiyaga ega raqamli banklar soni 235tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu raqamlar 350dan oshiq ko‘rsatkichga yetgan[7]. Dunyo bo‘ylab online banklardan foydalanuvchilar 2021-yilgi holatida 2.5 milliard odamni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil holatiga bu ko‘rsatkich 3.6 milliardga yetgan[8].

Yuqorida ro‘y bergan raqamli o‘zgarishlar asta sekin bank sohasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Jumladan, 2018-yilda O‘zbekistonda birinchi marta «raqamli bank» termini paydo bo‘ldi. Bu termin Markaziy bank tomonidan nizomga kiritildi. «Raqamli bank» orqali kassa xizmatini ko‘rsatmagan holda bank xizmatlarini masofaviy ko‘rish imkoni paydo bo‘ldi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan amalga oshirilishi belgilandi. «Raqamli bank» termini birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-son Farmoniga muvofiq nizomga kiritilgan[9].

Oradan ikki yil o‘tib, ya‘ni 2020-yilda “TBC bank” va “Anor bank” O‘zbekistondagi dastlabki raqamli bank sifatida tashkil etilgan. Bu banklar dastlab pul o‘tkazmalari va kredit berish tartibini online orqali amalga oshirishgan bo‘lsa, bugungi kunda bank operatsiyalarini to‘laqonli online tartibda amalga oshirmoqda. Bu banklar ortidan raqamli banklar soni asta sekin oshib bordi va bugungi kunda Hayotbank, Yangi bank, Avo bank, Smart bank kabi banklar o‘z ish faoliyatini raqamli tarzda olib bormoqda. Aynan shunday raqamli banklar hisobiga bugungi kunda mamlakatimiz aholisining aksar qismi kredit olishda, omonat qo‘yishda, plastik kartaga buyurtma

berishda, xattoki hisob raqam ochishda hech qanday filiallarga bormay, istalgan vaqtda, qog‘ozbozliklar va navbat kutishlardan xoli holda amalga oshirishmoqda.

Xo‘sh, yuqorida biz faqat online bank to‘g‘risida fikr yuritdik, aslida online bank va ananaviy bank orasida asosiy farqli jihatlari nimalardan iborat? Bu ikki xil bank tizimining asosiy farqi interfeysidadir. Ya’ni online bank xizmatlaridan foydalanmoqchi bo‘lsangiz, siz bankning rasmiy web sahifalariga kirishingiz yoki mobil ilovani yuklab olishingiz mumkin bo‘lsa, ananaviy banklarda bo‘lsa, siz bankka oid ehtiyojlaringizni qondirish uchun bank ofislariga borishingizga to‘g‘ri keladi.

1-jadval

Online bank va an’anaviy bank o‘rtasidagi farqlar

Ko‘rsatkich	An’anaviy bank	Online bank
Xizmat ko‘rsatish usuli	Filiallarda hodimlar yordami orqali telefon/internet orqali	Faqat internet orqali (mobil ilova yoki veb-sayt)
Filiallar mavjudligi	Ha, bank binolari mavjud	Yo‘q (filialsiz ishlaydi)
Ish vaqti	Ish kunlarida va ish soatlarida	24/7 (doimiy ishlaydi)
Xizmatlar tezligi	Ba’zan sekinroq, ayrim xizmatlar navbat bilan ko‘rsatiladi	Tezkor, real vaqt rejimida
Xarajatlar va to‘lovlar	Nisbatan yuqori (filiallar xarajatlari mavjud)	Pastroq (kam operatsion xarajatlar)
Texnologiyalar	Asosan qo‘lda bajariladi, ba’zida yarim avtomatlashtirilgan	Sun’iy intellekt, avtomatik xizmatlar, chatbotlar
Mijozlarga xizmat	Yuzma-yuz, bank xodimlari orqali	Onlayn chat yoki avtomatik tizim orqali

Xavfsizlik	An'anaviy xavfsizlik choralariga ko'proq tayanadi	Kuchli raqamli xavfsizlik tizimlari (2FA, biometrika)
Hisob ochish	Filialga borish talab qilinadi	Masofadan, bir necha daqiqada
Moslashuvchanlik	Kamroq yangilanishlar ko'proq vaqt talab qiladi	Yuqori – ilovalar tez yangilanadi

Manba: Emperik tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Kamchiliklari va xavfsizlik:

-Texnik muammolar: tizim ishlaymay qolishi yoki ilova xatoligi yuzaga kelishi mumkin.

-Xavfsizlik xavotirlari: kiber hujumlar, phishing va boshqa tahdidlar mavjud; shuningdek, ayrim raqamli xizmatlarda sug'urta kafolati bo'lmasligi mumkin. • Shaxsiy yordam yo'qligi: ba'zi mijozlar masofadan xizmat olishni noqulay deb hisoblaydi. Yuqorida sanab o'tilgan holatlar aynan raqamli bankning kamchiliklari hisoblanadi. Shuning uchun raqamli banklar bunday holatlarni oldini olishi va xavfsizlik uchun alohida e'tibor berishi lozim. Raqamli bank tushunchasi paydo bo'lgandan so'ng raqamli firibgarlik tushunchasi ham anchagina avj oldi. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda bank plastik kartalaridan pul o'g'irlanishi, soxta elektron pochta va saytlarga aldanib qolish, shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy yo'llar bilan g'arazli maqsadlarda foydalanish kabi holatlar kuzatilishi hech birimiz uchun yangilik bo'lmay qoldi va bu kabi holatlar hozirgi "raqamli zamonamizda" juda ham ko'p sodir bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ham bugungi kunda tijorat banklari tomonidan "Uzcard" hamda "Humo" to'lov tizimlarining milliy valyutadagi bank kartalari muomalaga chiqarilib, ularning infratuzilmasi kengaytirib borilmoqda. 2-jadval

2-jadval

Bank kartalari soni, terminallar soni, bankomat va infokiosklar soni, to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar (oy davomida)

Yillar	Muomaladagi bank kartalari soni	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To'lov terminallari orqali tushgan tushumlar 1-oy davomida (mln . so'mda)
2020	24 077 115	437 231	11 456	57 399 066
2021	25 207 659	434 971	12 710	76 919 479
2022	31 820 600	432 269	19 318	122 195 202
2023	41 359 507	429 182	24 036	181 544 900
2024	46 073 524	429 359	28 795	24 844 351

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sayti ma'lumoti

Yuqoridagi jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillar kesimida muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar, to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan bo'lib,

muomaladagi bank kartalari soni 2020-yilga nisbatan 46 073 524 bilan qariyb 2 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin, shuningdek, o'rnatilgan to'lov terminallari soni 2024-yilning oktabr oyi holatiga ko'ra 429 359 tani tashkil etmoqda, o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni bo'lsa 2024-yil holatiga ko'ra 28 795 ta, to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar esa 2024-yilning yanvar oyi davomida 24 844 351 mln. so'mni tashkil qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra yirik banklarda yangiliklar (nou-xau) joriy etilishi qiyinchiliklar bilan amalga oshirilishi sababali, strategiya amalga oshirilishida ayrim chora-tadbirlarning tarmoq jadvalidan ortda qolishi qator muammolarni keltirib chiqaradi. Xulosa o'rinda, shuni ta'kidlash joizki bank tizimida, bankda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi kabi, yirik banklarda ushbu texnologiyalar va o'zgarishlar uchun yetarli resurslar mavjud bo'ladi, biroq aynan yirik banklarda yangiliklar (nou-xau) joriy etilishi qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Гонтар, А.А., Сазонов, С.П. Экономические методы обеспечения информационной безопасности кредитной организации // Управление экономическими системами: электрон. науч. журнал. -2016. - No 9. –С.- 6.
- 2.Sardana V., Singhania S. Digital technology in the realm of banking: A review of literature //International Journal of Research in Finance and Management. – 2018. – Т. 1. – №. 2. – С. 28-32.
- 3.Cuesta C. et al. The digital transformation of the banking industry //BBVA research. – 2015. – Т. 1. – №. 4. – С. 1-10.
- 4.Жарковскауа, Е.П. Банковское дело: длуа студентов вузов по специальностиам «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковскауа. –4-е изд., перераб. и доп. –М.: Омега-Л, 2012. –452 с.
5. Skinner C. Digital bank: Strategies to launch or become a digital bank. – Marshall Cavendish International Asia Pte Ltd, 2014.

6. Artiqov Hayotjon Baxromjon o'gli. Raqamli banklar: tarixi, rivojlanish tendensiyalari, kamchiliklari, afzalliklari va xavfsizlik tamoyillari.

<http://www.innoist.uz/>

7. <https://www.statista.com/statistics/1535827/number-of-digital-banks-worldwide>

8. <https://scoop.market.us/online-banking-statistics/>

9. <https://www.spot.uz/oz/2018/08/02/bank/>

10. I.R. Toymurodov va boshqalar. Pul va banklar. Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-yil, 408 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda "2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli Qarori.